

## **Yoqubxo‘ja Bahriiddinxo‘jayev haqida uning ukasi Orifxo‘ja otaning qizi taniqli olima va pedagog Baxtiya Shamsievaning xotiralari**

“Rahmatli adam Yoqubxo‘ja akalari haqida hech qachon gapirmas edilar. Balki, otamiz bizdan xavotir olganlar. Ba’zan, onamiz aytib berar edi. Otamiz akalarini olib ketganda ko‘p bor shinel kiyib olib Toshkentdagi qamoqxonalardan qidirgan, ammo hech qanday xabar topmagan ekanlar. Yaqinda oilamiz shajarasini tuzish maqsadida ko‘proq ma’lumot topishga niyatida «Shahidlar xotirasi» jamoat fondiga murojaat qilib, ko‘plab qiziqarli materiallarga ega bo‘ldim.

Umuman Najmiddinxo‘ja amakimizning qaynisinglisi Muqaddasxon taniqli jadid taraqqiyparvari Munavvar qori Abdurashidxonovga turmushga chiqqan va ular boja bo‘lganlar. Yoqubxo‘ja amakimiz bo‘lsa buyuk jadid mutafikkiri Ismoil G‘aspirali bilan boja bo‘lganlar. Ya’ni, Ismoil G‘aspiralining turmush o‘rtoqlari Zuhra Akchurinaning singlisi Zuleyxa Asfandiyarovna (1900-1982)ga uylangan. Onamizning xotirasiga ko‘ra Zuleyxa Akchurina-Xodjaeva juda ziyoli, bilimli ayol bo‘lgan ekan. O‘zi bilan olib kelgan fortepianoda chalishni otamiz Orifxo‘jaga o‘rgatganlar. Zuleyxa yangamiz Yoqubxo‘ja amakimiz 1929-1937 yillar qamoqda bo‘lgan vaqtida ham Toshketda yashagan va hovlimizdagi o‘smir bolalarga rus tilini o‘rgatgan ekanlar. Keyinchalik Rashid akamlar Leningradda oliygohda, Mavjud opamlar universitetning Rus tili fakultetida o‘qiganlar. Amakimiz mahv etilganidan so‘ng Zuleyxa Akchurina Qozon shaharga borib, tanikli olim, arxeolog va bibliograf bo‘lib yetishgan. Menimcha, boshka turmush kurmaganlar va farzandlari bulmagan.

Yoqubxo‘ja amakimiz birinchi marta 1918 yil amakilari Najmiddinxo‘janing qizlari Ruxafzalxoniga uylangan. 1919 yilda Abdurashidxo‘ja akamiz tug‘ilganidan so‘ng oradan 3-4 kun o‘tib vafot etganlar. Ikkinci ayollar Ruxsoraxon (1896 -1988) bo‘lib, u kishidan Salima opa va Zievuddin akalar dunyoga kelgan. Orada nimadir bo‘lib ajrashganlar va keyin Zuleyxa Akchurinaga uylanganlar, ammo farzand ko‘rmagan ekanlar. Xullas Yoqubxo‘ja amakimiz ilmli, sahiy inson bo‘lib, ma’rifatli insonlarni do‘st tutganlar. Oilada Munavvar qoriga hurmat juda yuqori bo‘lib, 1916 yilda tug‘ilgan singilariga Munavvarxon, o‘zining to‘ng‘ich o‘g‘illariga Abdurashidxo‘ja deb ism bergenlar. Maqsuda opamlar men yosh qizcha edim, Yoqubxo‘ja amakim boloxonada o‘rtoqlari adib Abdulla Kodiriy bilan kun bo‘yi suhbat qilishardi. Men ularga choy tashib charchardim deb eslardi.

Bizning hovlimiz hozirgi Panorama teatri o‘rnida bo‘lgan. Uni “maydon” deb aytardik. O‘nga yaqin qarindosh oilalar yashardik, orada devor ham bo‘lmas, xamma oilada o‘zining bog‘i bor edi. Shuncha bola ammo biror kishining ovozini ko‘tarib gapirganini eslolmayman. Juda ahil, oqibatli insonlar edi. Ziyovuddin akamlar Sharqshunoslik yo‘nalishida o‘qib, respublika jurnalida bosh muharrir bo‘ldi. Bugun ham avlodimizdan fan arboblari, professorlar, rassomlar, taniqli chevarlar ko‘plab ma’rifatli, vatanparvar insonlar yetishib chiqqan va chiqishmoqda. Biz ma’rifatparvar ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz”.